

MUSOFIR HUKMDOR YOXUD QISMAT QURBONI

*BuxDPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi
IMIG'22 guruh talabasi - Salimova Gulchiroy*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Buburning nima sababdan Movarounnahrni tark etishi va o'z yurtiga qayta olmaganligining sabablari manbalarda keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'z: Boburnoma, Mubayyin, Saripul jangi, Panipat jangi, imperiya, «Ur Bobur», chindovul, aryergard, tavochi, qo'rchiboshi,

Bobur - turkiy adabiyotning eng mashhur vakillaridan biri. O'zining ijodiy faoliyati va kuchli siyosati bilan dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan, O'rta Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir va olimdir. Shu bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda, Amir Temurning beshinchi avlodi bo'lmish temuriyzoda shahzodadir. U dono siyosati, aql- zakovati bilan Hindistonda buyuk Boburiylar imperiyasiga asos solgan hukmdor sifatida nom qoldirgan bo'lsa, badiiy ilmiy va tarixiy merosi orqali betakror shoir, islomiy huquqshunos va tarixnavis olimlar qatoridan ham joy oldi.

Xo'sh, nega bu temuriyzoda umr bo'yi Vatan sog'inchi, yurt hajrida yashadi? Nega " O'z yerni qo'yib, Hind sori" yuzlandi? Ushbu maqola Buburning Movarounnahrni tark etishi va o'z yurtiga qayta olmaganligining sabablari xususida.

Tarixdan ma'lumki, buyuk sulola asoschisi vafotidan so'ng uning vorislari hokimiyatni egallashga harakat qiladi. Amir Temur vafot etgach, hatto, taxt vorisi tayinlanganligiga qaramay shahzodalar taxt uchun qonli kurashga kirishadi. Bu kurashlar oqibatida Temuriylar imperiyasi asta- sekinlik bilan yemirila boshlaydi. Bir yoqda toj-u taxt uchun o'z jigarining qonini to'kayotgan temuriyzodalar, bir yoqda Movarounnahrning nihoyatda chuvalashib ketgan siyosiy hayoti, beklarning boshboshdoqliklari Chingiz sulolasining Jo'ji xonadoniga mansub Shayboniy Muhammadxonga 140 yillik Temuriylar hukmronligiga xotima yasashga yo'l ochdi. Abu Said Mirzoning nabirasi, Umarshayx ibn Bobur Mirzo ham 1504-yilgacha Farg'ona va Samarqand taxti uchun kurashdi, ammo mag'lubiyatga uchradi. Albatta, tobora so'nib borayotgan Temuriylar quyoshini saqlab qolish birgina 19 yoshli Bobur Mirzo qo'lidan kelmas edi. Bobur ilk marta bobomeros Samarqandni egallaganda 15 yoshda edi. Bu vaqtda Samarqand hokimi bo'lgan Boysung'ur Mirzo esa Qunduz hukmdori Xusravshoh huzuriga qochadi. Bobur shaharni qisqa muddat, ya'ni 100 kun idora qiladi. Andijonda ukasi Jahongir Mirzoni taxtga kelishini istagan kuchlar isyon boshlaydi, shu sababli Farg'onada hokimiyatni qo'ldan boy berishni istamagan Bobur

Samarqandda o‘z vakilini qoldirib Andijonga qaytadi. U Samarqanddan chiqib, Xo‘jandga yetganda, Andijonning qo‘ldan ketganligi, Uzun Hasan hokimiyatni qo‘lga olib, Bobur Mirzoning diniy murabbiysi va homiysi Xoja Qozini asirga olib, qatl qilingani haqida xabar keladi. Natijada ham Samarqanddan, ham Andijondan ayrilib bir muddat sargardonlikda qoladi. Avval Xo‘jandga boradi, so‘ng tog‘asi, Toshkent hokimi, Sulton Mahmudning ko‘magi bilan Andijonni qayta egallaydi. Bobur Mirzo Andijon taxtiga ikkinchi marta o‘tirishi 1499-yil iyul oyiga to‘g‘ri keladi. Tarix fanlari doktori, professor Abdumajid Madraimov “ Bobur- xatolardan xoli bo‘lmagan samimiy inson” ekanligi haqida shunday ma’lumot beradi:

— Beayb parvardigor, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining kamchiligini, aybini ham yozib qoldirgan. Masalan, Andijonni ikkinchi marta egallagandan keyin shunday farmon beradiki, kim o‘z mulkini tanisa, qaytarib olaversin degan. Chunki bundan oldin Boburning dushmanlari uning tarafdorlarining mol-mulkini tortib olgan edi. Farmon atay qasd olish, chegaradan chiqishgacha olib keladi. Askarlar podsho farmonini ro‘kach qilib, raqiblarining barcha mol-mulkini tortib ola boshlashgan. Bobur bu buyrug‘i xato bo‘lganini va xalqni o‘ziga qarshi qilib qo‘yganini ta’kidlaydi. Shu sabab ham Andijonda xalq orasida «Ur Bobur» degan ibora qolib ketgan”.

Biroq Andijon taxtiga bo‘lgan jangu jadallar tinchimadi. Bobur Mirzoning eng xavfli raqibi Sulton Ahmad Tanbar Umar Shayx Mirzoning ikkinchi o‘g‘li Jahongir Mirzoni Bobur Mirzoga qarshi qayray boshlaydi. Mazkur aka-uka shahzodalar va ularning orqasida turgan guruhboz bek va amaldorlarning o‘zaro qonli nizolari har ikki tomonga ham biror manfaat keltirmadi. Aksincha, xalq ommasining og‘ir ahvoli yanada mushkullashdi. Mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi kuchayabordi. Nihoyat 1500-yil fevral oyining oxirida Bobur Mirzo bilan Jahongir o‘rtasida tinchlik sulhi imzolandi.

Boburshohning yo‘qligidan foydalanib Boysung‘urning ukasi Buxoroda turgan Sulton Ali Mirzo 1498-yilda Samarqand taxtini egallaydi. Bu vaqtda O‘zbek xonligi hukmdori Abulhayrxonning nabirasi, Shohbudog‘ sultonning o‘g‘li Shayboniyxon ham Samarqand taxtiga kelishdan manfaatdor edi. U Sulton Ali Mirzoning beva onasi Zuhrabegimga unga uylanish taklifi bildirilgan xat yo‘llaydi . Onasining gapiga kirgan Sulton Ali Mirzo nodonligi oqibatida 1500-yilda Shayboniyxonga poytaxtni jangsiz topshiradi, ammo berilgan va’dalar bajarilmaydi. Sulton Ali Mirzo esa Qo‘lba yalangligida o‘lim bilan siylanadi. Shu tariqa Samarqand o‘zbeklar qo‘liga o‘tdi.

“ Boburnoma”da shunday deyiladi: “ Shayboniyxon Samarqandni yaqinda olib, hanuz el anga va ul elga ko‘ngul to‘xtatmaydurlar, ushbu fursatda bir ish qila olsak xud qilg‘aybiz. Agar Samarqand qo‘rg‘onini shotu qo‘yub o‘g‘urliq bila olsak, Samarqand eli xud bizningdir”.

Darhaqiqat, Shayboniyxondan norozi bo‘lgan beklar ko‘magi ila Bobur Mirzo Samarqandni ikkinchi bor egallaydi. 1500-yilda Shayx Abul Mukarram boshchiligida

Samarqand shahrining Feruza darvozasi Bobur Mirzoga ochib beriladi. To‘satdan shaharga bostirib kirgan qo‘shin Shayboniyxonning asosiy kuchini qirib tashlaydi. Bu vaqtda Shayboniyxon Konigilda edi. Bu gal ham Boburning Samarqandni uzil-kesil egallash niyati ro‘yobga chiqmadi. Bu vaqtda aholi ketma- ket urushlar-u qamalgandan charchagan, mamlakatda ochlik va chorasizlik hukm surardi.

Samarqandni qo‘ldan boy bergani haqidagi xabarni eshitgan Shayboniyxon haqida Boburning o‘zi bunday yozadi:” Shayboqxon bu xabarni topib, iztirob bila oftob chiqqanda yuz-yuz ellik kishi bila Ohanin darvozasiga yetib keldi. G‘arib qopuda kelib edi. Vale mening bila kishi ko‘p oz edi, nechukkim, mazkur bo‘ldi. Shayboqxon ko‘rdikim, hech ish qila olmas, turmadi, bot- o‘q yondi... Yuz qirq yilga yovuq Samarqand poytaxti bizning xonavodada edi. Qandag‘i yot yog‘iy, o‘zbek kelib mutasarrif bo‘lib edi. Ilikdin ketgan mulkni yana tengri berdi. G‘orat va toroj topgan viloyat tasarrufimizga kirdi”.

Shayboniyxon shundan keyin bahorga qadar kuch to‘plab harbiy quvvatini oshiradi. 1501 – yilning aprel oyida Zarafshon daryosi bo‘yida Bobur va Shayboniyxon o‘rtasida Saripul jangi bo‘lib o‘tadi. Unda Bobur Mirzo yengiladi.

Garchi, jang vaqtida yollanma mo‘g‘ul qo‘shinlarining xiyonatlari mag‘lubiyatning asosiy sababi qilib ko‘rsatilsa- da, bundan boshqa obyektiv sabablarni inkor etib bo‘lmaydi. Jang oldidan har ikkala tomon 5-6 kun davomida harbiy taktika, rejalar o‘ylash bilan band bo‘lgan. Bobur esa jangni yanada kechiktirishga harakat qilardi, chunki u harbiy madad kutayotgan edi. Hirotdan Husayn Boyqaro tomonidan yuborilgan Qanbar Ali boshchiligidagi ikki ming kishilik qo‘shin Keshga yetib kelgan va ikki kundan keyin kelib Boburning askarlariga qo‘shilishi kerak edi. Bundan tashqari tog‘asi sulton Mahmudxon ham Sayyid Muhammad boshchiligida 150 ming kishilik lashkar yuborgan bo‘lib, u ham tez orada yetib kelar edi. Boburning jangda yengilishining katta sabablaridan biri shu madad kuchlarining kelishini kutmay jangga kirishidir. Bobur munajjimlar bashorati bilan ish tutadi, yani munajjmlarning: “Shu kunda sakkiz yulduz oraliqda turganligini, agar bir kun o‘tsa, ikki hafta davomida sakkiz yulduz dushmanning orqasida bo‘lishi, bu esa kechiktirmay jangga kirish va g‘alaba qozonish lozimligini anglatadi”- , deya qilgan bashoratlari natijasida yordamchi kuchlarni kutmay harakat boshlaydi.

Shayboniyxon juda ilmli , tajribali va zehni o‘tkir sarkarda edi. Bobur qo‘shinni odatdagidek safga tizib, eng sara sarkardalari va mohi r jangchilarini qo‘shinning irovul (qorovul, markazda, qo‘shinning oldi qismida boruvchi bo‘linma) qismida joylashtiradi. Shayboniyxon esa qo‘shin qanotlariga tajribali sarkardalar bo‘lgan Mahmud sulton, Hamza sulton va Mahdi sulton rahbarligidagi kuchli otiqlarni joylashtirgan. Shayboniyxonning harbiy razvedkasi Boburning harbiy kengashi sirlaridan voqif bo‘lgan bo‘lishi ehtimol. Sababi shuki , jangda Shayboniyxon to‘lg‘ama usulini qo‘llagan. Jang boshlanishi bilan, Shayboniyxonning qanot qismlari

Bobur jangchilarining barong‘or va javong‘orini ortga surib tashlab, markaz qismning orqasidan yorib kirgan. Natijada, qo‘shinning chindovul (oqa qism – aryergard) qismida turgan Bobur asosiy qismdan ajralib qolgan va qurshovga tushib qolmaslik uchun, chekinishga majbur bo‘lgan. E‘tibor beradigan jihat shuki, Shayboniyxon hamma jangda ham bu usulni ishlatavermagan. U dushmanning kuchi, mahorati, imkoniyatlari va jang usuliga qarab o‘z taktikasini o‘zgartirib tugan. Bundan ko‘rinadiki, uning razvedkasi juda zo‘r ishlagan.

Shunday qilib, Bobur bu jangda yengildi va Samarqandga chekindi. Shayboniyxon shaharni 4 oy qamal qiladi. Samarqandda oziq- ovqat tanqisligi, nihoyat darajada chorasizlik, vayronalik hamda dahshatli ocharchilik hukm surardi. Bu haqda Bobur Mirzoning o‘zi shunday yozadi: “Elga bisyor tanqislik bo‘ldi. Anga yettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yeya kirishtilar”. Ana shunday bir vaziyatda Shayboniyxon Bobur Mirzoga sulh haqida muzokara yuritishni taklif qiladi. Mazkur sulhning shartini Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim o‘zining “Humoyunnoma” asarida: “Ana shunday vaqtda Shohibekxon (Shayboniyxon) “agar o‘z singlingiz Xonzoda begimni menga bersangiz, oramizda sulh tuziladi va ittifoqchilik aloqalari o‘rnatiladi”, – deb aytgizib yubordi”- deb yozadi. Bobur bu taklifga rozi bo‘lmaydi, ammo o‘z jigari uchun, uning hayoti uchun o‘zini qurbon qilishga-da tayyor bo‘lgan Xonzodabegim taklifni qabul qiladi.

Shu vaqtdan boshlab Temuriylar taxti uzil- kesil Shayboniylar qo‘liga o‘tdi. Shayboniyxonning qo‘sh xotini bo‘lib, Xonzodabegim ham uning haramiga tushadi. Bu nikoh orqali Shayboniyxon ham bobosi Abulxayrxon kabi Temuriylarga kuyov bo‘lishni ko‘zlagan bo‘lsa ajab emas. 1501-yilda ularning farzandi Hurranshoh tug‘iladi. “ Tarixi Rashidiy”da Xonzodabegimning keyinchalik Shayboniyxon nikohidan chiqarilib Sayyid Atoiy avlodidan bo‘lmish Sayyid Hodiga uzatilgani aytilgan. Buning sababi o‘laroq Xonzodabegim ukasining xohishi bilan xon hayotiga qasd qilishi mumkinligi aytilgan, ya’ni Shayboniyxon Xonzodabegimga nisbatan ishonchsiz bo‘lgan. “ Tarixi Qipchoxoniy”da ham Shayboniyxonning Xonzodabegimdan ajrashish sababi sifatida aynan shu zahar berishda gumonsirash masalasi ochiq- oydin ko‘rsatilgan. Sayyid Hodi Shayboniyxon va boshqa shayboniy sultonlar, qilaversa, barcha Dashti Qipchoq o‘zbeklari o‘rasida hurmatga sazovor inson bo‘lgan. 1506- yilgi Marv yaqinida SHayboniylar va Safaviylar o‘rtasida bo‘lgan jangda u ham Shayboniyxon va uning tarafdorlari kabi o‘ldirilgan. Xonzodabegimning kimligi haqida xabar topgan Ismoil Safaviy uni o‘z elchilari bilan izzat- ikrom ila Bobur Mirzo huzuriga jo‘natadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 19 yoshida yurtdan quvildi, endi uning na taxti bor va na davlati. Garchi ikkinchi bor yengilgan bo‘lsada, ammo o‘z yurtini mo‘g‘ullardan qaytarib olish niyatidan hali so‘nmagan edi.

Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil

harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og'ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503- yil Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo'shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo'yida tormor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501—1504 yillarda Bobur Farg'ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolariga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi.

So'ngra Hisor tomon yo'l oladi. Hisordagi parchalanib borayotgan beklar, tarqoq qabilalarni birin ketin bo'ysundiradi. Hisor tog'lari orqali Afg'onistonga o'tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G'azna va Kobulni egallaydi. Bobur Kobulni egallagach, mustaqil davlat tuzishga jadal kirishadi, qo'shinni tartibga keltiradi, qattiq ichki intizom o'rnatadi. Kobulga, umuman Afg'onistonga Bobur o'z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, kasbu-hunar va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yuboradi. «Bog'i Shahrora», «Bog'i Jahonoro», «O'rtabog'», «Bog'i vafo» va «Bog'i Bobur» kabi oromgohlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal'asini o'z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta'mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal'ada yashadi. Uning Humoyun, Gulbadanbegim, Komron va Hindol ismli farzandlari shu yerda tug'iladi.

Shayboniyxon islomdagi sunniy yo'nalishga rioya qilar edi va u xalq tomonidan 1506- yildan buyon "Imom az-zamon va Xalif al-rahmon" deb ulug'lana boshlagandi. Unda Eron shohi Ismoil Safaviy tomonidan davlat dini etib tayinlangan shiizmga qarshi kurashish xohishi yo'q emasdi. 1510-yil kuzida Feruzko'hdagi hazoralar ustiga muvaffaqiyatsiz yurish qilgan Shayboniyxon Hirot atrofida qo'shininga dam berib, ko'pgina amir va shayboniy sultonlarga o'z mulklariga ketishga ruxsat etgan. Biroq bu orada safaviylar shohi Ismoil Xurosonga yurish qilgani haqida xabar olingan. Shayboniyxon shayboniy sultonlarni yordamga chaqirib, ularga tavochilar (choparlar) jo'natgan, o'zi esa qo'shini oz bo'lgani tufayli Marvga chekingan. Biroq choparlar quruq qaytishgan. Sultonlar o'tgan yili (1509-yil) Shayboniyxon ularga in'om etgan mulklarni tortib olgani tufayli undan arazlab Marvga kelmaganlar, faqatgina Muhammad Temur sulton Samarqand qo'shini, Ubaydullaxon esa Buxoro qo'shini bilan jang oxirida yetib kelgan, xolos. Ismoil Shayboniyxon huzuriga qo'rchiboshi boshchiligida elchilar yuborib, uni taslim bo'lishga undagan, biroq rad javobini olgach, Ismoil Marvni qamal qilgan va jan-gda, odatda, turkiy xalqlar uchun xos bo'lgan harbiy qiyla ishlatgan: safaviylar qo'shini qamalni bo'shatib Marv devorlari ostidan go'yo orqaga chekinganday bo'lib, o'zbeklarni shahardan chiqishga majbur qilishgan. Shayboniyxon bu gal tajribali sarkarda uchun kechirib bo'lmas xatoga yo'l qo'ygan; u o'z raqibi kuchiga yetarli baho bermagan. Yordam kelishini kutib o'tirmasdan u "cheकिनayotgan" Ismoil ortidan tashlangan. Biroq uning orqa tomoniga o'tib olgan

safaviylar qo‘shinining bir qismi Murg‘ob ko‘prigini buzib tashlaydilar, natijada Ismoilning 17 minglik qo‘shini Shayboniyxonni qur-shovga olgan. Mirza Muhammad Haydarning yozishicha, Shoh Ismoil qo‘shinida taxminan 40 ming, Shohibekxon (Shayboniyxon) qo‘shinida esa 20 ming jangchi bo‘lgan. O‘ta shiddatli, qonli jangda barcha o‘zbek sultonlari (amirlari) va Shayboniyxon halok bo‘lishgan.

Bir qancha vaqt shayboniylar safaviylardan qasos olishga harakat qilishadi lekin aynan shayboniyxonning vorisi Abdulmo‘min ibn Abdullaxon II bu ishni amalga oshiradi va shoh Taxmaspning qabrini ochdirib suyaklarini yoqib yuborish orqali shayboniylarni qasosini oladi. Shayboniy taqdiridan voqif bo‘lgan Bobur Mirzo qalbida Shoh Ismoil yordamida Movarounnahmi qaytadan egallash umidi paydo bo‘ladi. Ana shu niyatida u Shoh Ismoil elchisini Qobulda juda ochiq chehra bilan kutib oldi. Ismoil elehilari Bobur Mirzoga sovg‘a tariqasida shialar odatiga ko‘ra o‘ralgan salla qalpoqni tortiq qiladilar. Bu, albatta, diplomatiya o‘yini edi.

Atrofdagilarning nigohi Bobur Mirzoga qadalgan; nahotki Bobur Mirzo o‘zi sunniy bo‘laturib shialar qalpog‘ini kiya ... Shu Payt elehilar shoh Ismoil Bobur Mirzoga birgalikda Samarqandga qo‘shin tortishni taklif qilganligini aytadilar. Bobur Mirzo Shoh Ismoil taklifini qabul qiladi va diplomatik mahoratini ishga solib: «Inshoolloh Samarqandni egallasak bu qalpoqni kiyamiz», deb og‘ir vaziyatdan chiqib ketadi. Chunki agar shu paytda u qalpoqni kiyganida barcha sunniylar Bobur Mirzodan yuz o‘girar edilar. Shoh Ismoil o‘zaro kelishuvga asosan Samarqand taxti uchun kurashda Bobur Mirzoga har tomonlama yordam berdi. U Bobur Mirzoni qurollantirdi, unga sipohlar berib jangga otlantirdi. Sobur Mirzo 1512-yilda Shoh Ismoil yordamida Samarqandni qo‘lga kiritdi. Ammo bu safar Samarqand aholisi Boburni qo‘llab-quvvatlamadi. Xalq uni bu gal shiddatli hukmdor avlodi, qo‘rqmas sipoh, xalqparvar shoir va mutafakkir, avvalgi Bobur Mirzo deb emas, balki shoh Ismoilning qo‘g‘irchoq gumashtasi, Samarqand sunniy aholisining nazarida mansab, hokimiyat uchun har narsaga tayyor, o‘z elidan, dinidan qaytgan shialar xizmatkori sifatida qabul qiladi. Bunga Sobur Mirzoning yo‘l qo‘ygan xatolari va noto‘g‘ri xatti-harakatlari asosiy sabab bo‘ldi. U Samarqandni egallagach, shoh Ismoilni oliy hokim deb e‘lon qiladi. Shiya imomlari nomi bilan tangalar zarb qila boshladi, Movarounnahni Eron manfaatlariga bo‘ysundiradi. Albatta, bu hoI sunniy mazhabidagi Movarounnahr aholisining g‘azabini qo‘zg‘adi. Bu orada Bobur Erondan kelgan qo‘shinlarga javob berib ularning boshliqlariga katta-katta sovg‘a-salomlar ulashadi. Shu tufayli yuzaga kelgan qulay fursatdan foydalangan va xalq ommasining kayfiyatini to‘g‘ri hisobga olgan Shayboniylar urug‘idan bo‘lgan shayboniyzodalar Ubaydulla Sulton boshchiligida birlashib 1512-yil G‘ijduvon yaqinida bo‘lgan jangda Bobur qo‘shinlarini yengadi. Uchinchi marta ham Mirzo Bobur Samarqandni noiloj tark etadi va yana Kobulga qaytadi. Kobul viloyatida o‘z hokimiyatini mustahkamlab olgandan so‘ng e‘tiborini Hindiston tomonga qaratadi. Chunki u endi o‘z yurti

Movarounnahrda umidini butkul uzgan edi. Yana va yana kurashgani bilan bari befoyda, endi xalq uni qo'llamas, jabr- zulmlardan o'zini xalos etuvchi rahnamo deb bilmas edi. O'z davrida Amir Temur egallab, mahalliy hokimlarga qoldirgan Dehli saltanatini qaytarib olishga qaror qiladi. Dehli sultoni Ibrohim Lodiyning raqiblari, amakisi A'lamxon, Panjob hokimi Davlatxon va nufuzli mahalliy rojput hukmdorlaridan biri Rona Sango Boburni Shimoliy Hindistonga chorlab, maktublar jo'natgan. Mutaxassislar fikricha, Shimoliy Hindistonda Bobur oddiy mahalliy xalqqa qarshi emas, balki bobomeros mulkini egallab olgan afg'on va rojput sulola vakillariga qarshi kurashib, Dehli sultonligini egallagan. Dehli sultoni Ibrohim Lo'diyning yuz ming kishilik qo'shinini 12 minglik askari bilan tor-mor qiladi hamda Dehlini egallaydi. Oradan ko'p o'tmay, ikkinchi yirik hind sarkardasi Rano Sango ustidan ham zafar qozonib, Shimoliy Hindistonning Bengaliyagacha bo'lgan qismini o'ziga bo'ysundiradi. Agrani o'ziga poytaxt sifatida tanlagan Bobur katta qurilish va obodonchilik ishlarini boshlab yuboradi. Shu tariqa Bobur Hindistonda uch yarim asrga yaqin hukm surgan qudratli boburiylar sulolasiga asos soladi.

Garchi, Bobur o'z yurtidan diniy mazhablarni qo'shilishiga dinni aqidalarni buzilishiga olib kelgan hukmdor sifatida chiqib ketgan bo'lsa-da, u aslida din va shariat qoidalarini yaxshi bilgan. Bu fikrimiz isboti sifatida uning Hindistonga harbiy yurishlari vaqtida yozilgan Mubayyin nomli asarni keltirishimiz mumkin. Asar 1521-yilda masnaviyda yozilgan bo'lib, shariat qoidalari va islom huquqshunosligiga bag'ishlangan, ahli sunnat val jamoat aqoidi ravshan bayon qilingan. «Mubayyin» - falsafiy-diniy mavzudagi asar bo'lib, unda Bobur Mirzo islom dinining besh ruknini hanafiy mazhabi asoslari doirasida qanday to'g'ri bajarilishini bayon qilgan. Qo'lyozma eski o'zbek tilidagi eng go'zal hattotlik yo'nalishlaridan biri – nastaliq xatida ko'chirilgan. Shuningdek, u fors tiliga tarjima bilan ta'minlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu qo'lyozma bundan 400 yil avval Hindistonda qog'ozga tushirilgan. «Mubayyin» qo'lyozma nusxasi Eron hududiga Kashmir orqali olib kelingan. Kitob so'nggi 120 yildan ortiq vaqt davomida "Guliston" saroyi muzeyi kolleksiyasida saqlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, qomusiy alloma, mumtoz shoir, ma'rifatli faqih Zahiruddin Muhammad Bobur qalamiga mansub "Mubayyan" asari Temuriylar davri ijtimoiy, oilaviy, xususiy hayotidagi ilmiy, ma'rifiy, diniy madaniyatning nazmiy ifodasidir. Bobur Allohning kalomi bo'lgan Qur'oni karim izmiga qat'iy amal qilib, har qadamda buyuk murabbiy Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlarini o'ziga dasturamal bilan shariatpanoh shoh bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Boburnoma"
2. Abdumajid Madraimov va Gavhar Fuzailova "Manbashunoslik"

3. Rustambek Shamsuddinov, Shodi Karimov va O‘ktamjon Ubaydullaev “Vatan tarixi”
4. Turg‘un Fayziyev “Temuriylar shajarasi”
5. Vamberi Xerman “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”
6. O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BIR PALATALI PARLAMENTDAN IKKI PALATALI PARLAMENTNI SHAKLLANISHIDAN KO ‘ZLANGAN MAQSAD
7. THE IMPORTANCE OF “HEAVENLY HORSES” IN RELATIONS BETWEEN THE STATES OF DAVAN AND CHINA
8. BUYUK IPAK YO ‘LI BO ‘YIDA JOYLASHGAN KARVONSAROYLAR VA SARDOBALAR TARIXIGA NAZAR
9. ZARAFSHON DARYOSI BO'YIDA DASTLABGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR (BUXORO VOHASI MISOLIDA)
10. QUYI ZARAFSHON HAVZASIDA ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR TARIXCHILAR NIGOHIDA
11. Qalampir.Uz
12. Tafakkur.Net
13. Milliycha.Uz
14. Zarnews.Uz
15. Fasebook.com
16. Davron.Uz